

O'zbekistonda Markaziy va Janubiy Osiyoning mintaqaviy bog'liqligi bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazilishi to'g'risida



“МАРКАЗИЙ ВА ЖАНУБИЙ ОСИЁ: МИНТАҚАВИЙ БОҒЛИҚЛИК. ТАҲДИДЛАР ВА ИМКОНИАТЛАР” МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО КОНФЕРЕНЦИЯ



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2021-yil 15-16-iyul kunlari Toshkent shahrida “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tadi.

Forumning asosiy maqsadi Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari o'rtasidagi tarixan yaqin va do'stona aloqalarni, ishonch va yaxshi qo'shnihilikni ikki mintaqa xalqlari va mamlakatlari manfaatlarini yo'lida mustahkamlashdan iborat.

Konferensiya ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari, boshqa xorijiy davlatlarning tashqi ishlar vazirlari va yuqori darajadagi vakillari, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, global moliyaviy institut va kompaniyalar, yetakchi ilmiy-tadqiqot va tahliliy markazlarning rahbarlari ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Forum ishtirokchilari yalpi va sho'ba majlislarda mintaqaviy bog'liqlikni yanada mustahkamlash doirasida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsion va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surish imkoniyatlarini muhokama qiladilar.

Kun tartibidan savdo, investitsiyalar, transport, energetika va innovatsiyalar, “yashil” texnologiyalar, kooperatsiya bo'yicha aniq loyiha va dasturlarni amalga oshirish, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat sohalarida hamkorlikni kengaytirish, ikki mintaqa barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan batafsil fikr almashish va birgalikda takliflar ishlab chiqish o'rin olgan.

Manba